




JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2023 yil yanvar-iyul oylari holatiga




■	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
■	Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali kelib tushgan murojaatlar
■	Ishonch telefoni orqali og'zaki murojaatlar
■	Statistika agentligining elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
■	To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
■	Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga 2023-yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 643 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 93 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 3 ta Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali, 316 ta Agentlikning elektron pochta orqali, 101 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 12 nafar ishonch telefoni orqali, 128 ta Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Statistika agentligiga asosiy qismi Toshkent shahridan 354 ta (o'tgan yilning shu davrida 281 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 60 ta, Samarqand viloyatidan 34 ta, Sirdaryo viloyatidan 23 ta, Andijon viloyatidan 23 ta, Qashqadaryo viloyatidan 22 ta, Buxoro viloyatidan 25 ta, Namangan viloyatidan 12 ta, Jizzax viloyatidan 14 ta, Farg'ona viloyatidan 20 ta, Navoiy viloyatidan 20 ta, Surxondaryo viloyatidan 10 ta, Xorazm viloyatidan 11 ta Qoraqalpog'iston Respublikasidan 7 ta hamda 2 ta murojaat boshqa hududdan kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Statistika agentligiga kelib tushgan jami **643** ta murojaatlarning tasiga chora ko'rildi, **537** ta murojaatlar ijobiy hal etildi, **101** ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, **5** ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **41,5** foizi (*267 ta*) jismoniy shaxslar va **58,5** foizi (*376 ta*) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



Og`zaki

- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 202-81-80



Og`zaki

- Statistika agentligi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 202-81-81



Elektron

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **Г.Салихова**

(71) 202-81-77